

## HOZIRGI ZAMON NEMIS TILI LINGVO DIDAKTIK SISTEMASIDA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHTIRILGAN ATAMALAR VA ULARNING STRUKTUR SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Sayyora Tagaeva*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti*

*A.Urazkulova*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Nemis tilidagi pedagogik va lingvodidaktik atamalar tarkibida to'liq kalkalash asosida hosil bo'lgan birliklar unchalik ko'p uchramaydi. Bu holatni muayyan bir davrda nemislar xorijiy atamalarni to'liq kalkalash asosida o'z tillarida o'zlashtirganliklari, bugungi kunda esa ularni asosan ingliz tilidan bevosita o'zlashtirayotganliklari, buning natijasida nemis tilida o'zlashtirilgan inglizcha atamalar va yarim kalka atamalar miqdori umumiy kalkalar miqdoridan ortiqligi bilan izohlash mumkin. Maqolada zamonaviy nemis tilidan ingliz tilidan o'zlashtirilgan pedagogik, lingvodidaktik atamalarning tarkibiy va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** termin, kalkalash, tarjima kalkalar, gibrid kalkalar, PLD(pedagogik lingvodidiaktik atamalar), anglitsizm

**Аннотация.** В составе педагогических и лингводидактических терминов немецкого языка не так много единиц, образованных на основе полной сопоставления. Эту ситуацию можно объяснить тем, что в определенный период немцы перенимали иностранные термины в свой язык на основе полного копирования, а сегодня в основном заучивают их непосредственно из английского языка, в результате чего количество англоязычных терминов и полукопий терминов, принятых на немецком языке, превышает общее количество экземпляров. В статье анализируются структурно-семантические особенности педагогических, лингводидактических терминов заимствованные из английского языка в современном немецком языке.

**Ключевые слова:** термин, калька, переводная калька, гибридная калька, ПЛД (педагогические лингводидактические термины), англицизм.

**Annotation.** In the composition of pedagogical and linguodidactic terms in the German language, there are not so many units formed on the basis of complete collation. This situation can be explained by the fact that in a certain period, Germans adopted foreign terms in their own language on the basis of complete copying, and today they mainly learn them directly from the English language, as a result of which the number of English terms and half-copy terms adopted in the German language exceeds the total number of copies. Structural-semantic peculiarities of English lingual pedagogical and lingvodidactic terms in modern German language. Structural-semantic peculiarities of pedagogical, lingvodidactic

terms borrowed from the English language in modern German language are analyzed in the article.

**Key words:** term, calque, translation calque, hybrid calque, PLT (pedagogical linguodidactic terms), anglicism

Atamalarining bilish va idrok qilish nazariyasidagi o'rnini tadqiq qilishga yo'naltirilgan kognitiv atamashunoslik fanida «termin» so'zi kasbiy–ilmiy faoliyat jarayonida maxsus tushunchalarni akkumulyatsiya qiladigan tipovoy informatsion–kognitiv struktura deya talqin qilinadi. [Volodina 2000: 89]. Binobarin, atamashunoslik kognitolog olimlar tomonidan turli soha mutaxassislarining bilish faoliyatidagi kontseptsiyalashtirilgan, kategoriyalashtirilgan, verballashtirilgan tushunchalarni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, bunday tushunchalarni ifodalovchi atamalar o'z navbatida «fan tarmoqlarining rivoji, madaniyatlararo aloqalar, sotsiumning lisoniy ongini doimo rivojlanib borishi bilan tobora yangilanib, o'zgarib borishi» ta'kidlanadi. (Lisikova 2009: 81-87).

Shu nuqtai nazardan ushbu maqolamizda hozirgi zamon nemis tilida ingliz tilidan o'zlashtirilgan lingvodidaktik atamalar va ularning struktur semantik xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik.

Nemis tilidagi pedagogik va lingvodidaktik atamalar tarkibida to'liq kalkalash asosida hosil bo'lgan birliklar unchalik ko'p uchramaydi. Bu holatni muayyan bir davrda nemislar xorijiy atamalarni to'liq kalkalash asosida o'z tillarida o'zlashtirganliklari, bugungi kunda esa ularni asosan ingliz tilidan bevosita o'zlashtirayotganliklari, buning natijasida nemis tilida o'zlashtirilgan inglizcha atamalar va yarim kalka atamalar miqdori umumiy kalkalar miqdoridan ortiqligii bilan izohlash mumkin.

Albatta kalkalar va yarim kalkalar nisbatini aniq belgilash murakkab masala, shu sababli bugungi kungi lingvodidaktik tadqiqotlarda tarjima kalkalar, gibrid kalkalar va inglizchadan o'zlashtirilgan(anglitsizm) atamalar haqida gap yuritiladi. Masalan, birgina darslikda bunday atamalarining ikki xil qo'llanilishini ko'ramiz: Verpacken – Packaging; collaborative learning - collaborative Lernen. (Lisikova 2009: 80-87).

Gibrid atamalar (yoki yarim kalka) (die Team-Arbeit, Real-Life-Situationen, Multiple-Choice Aufgaben, die Drill-Übung va h.) lisoniy tizimlar kesishgan nuqta sifatida bir ijtimoiy-madaniy jamiyatdan boshqasiga, o'zga madaniyatga mansub tushuncha yoki mazmuni ikkinchi tilga o'tkazish «ko'prigi» vazifasini bajaradi. Shu sababli har bir gibrid atama madaniyatlararo o'tkazgich funktsiyasida lingvistik tahlil uchun boy material bera oladi.

Hozirgi zamon nemis pedagoglari va jamiyatshunoslari o'tmish zamondagi ausgebildete Identität - «o'qimishli, bilimli shaxsni shakllantirish» g'oyasi o'rniga «Patchworkidentität» - «ko'p qirrali, yorqin shaxsni» shakllantirishni ta'lim maqsadi sifatida ilgari so'radilar (Bu o'rinda ingliz tilida patchwork leksemasi ikkita asosiy ma'noga: 1) aralash quralashlik, (fikrlashdagi chalkashlik, ma'nosiz gap, aqlga to'g'ri kelmaydigan narsa, behuda ish, axmoqlik), mozaika (qurama

naqsh), ola-bula aralashma; 2) qo'l mehnati turi, qo'lda yasalgan, bajarilgan narsa, chevar ishi ma'nosini anglatishi qiziqarli faktdir).

Ularning fikricha ideologik bosimdan holi bo'lgan ko'p millatli demokratik davlatda inson o'zi qiziqadigan, o'ziga yoqadigan barcha narsalar bilan shug'ullanishga haqli. Ammo, insoniy ma'naviyatga asoslanmagan bunday erkinlik insoniy qadriyatlarning toptalishiga, ota-onalar nazoratini mensinmaslikka olib kelayotganligi ma'lum va bu zamonaviy yoshlar tarbiyasida salbiy ijtimoiy oqibatlariga sabab bo'lishligi isbotlanmoqda. (Lisikova – 2011: 391-307).

Nemis tilidagi pedagogik va lingvodidaktik atamalar(PLD) ichida eng ko'p qo'llaniladigan anglitsizmlardan quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

Nemis tilidagi fe'lning shaxssiz formasiga (sifatdoshga) ingliz tilidagi produktiv suffiks -ing qo'shish yo'li bilan yasaladigan gibril atamalar. Bunday atamalar alohida semantik ma'no belgisiga ega bo'lib, ish harakatni rivojlanayotgan jarayon sifatida ifodalashga xizmat qiladi va nazarimizda gerundial atamalarning ko'pma'noliligini aniqlashda qo'l keladi. Atama tarkibidagi -ing suffiksining mavjudligi leksik variantlilikni vujudga keltiradi, aynan bu variantlilik asosida lingvodidaktik lug'atlar mualliflari alohida faktlar, jarayonlarni lug'aviy definitiyalashda ortiqcha mehnatdan ozod bo'ladilar.

Masalan, nemis tilidagi mix va mixing so'zlarining ma'no jihatidan ifodalaydigan farqlari ko'zga yaqqol tashlanib turibdi: Methoden-Mix metodik usullar( jarayon so'zi qo'llanilmayotganligiga e'tibor bering) va Code-mixing suhbat jarayonida bir tildan ikkinchi tilda gaplashishga o'tish.

Educational Gaming (ta'limiy o'yinlar) Serious Games (jiddiy o'yinlar). Inglizcha gaming so'zida «beriluvchanlik, qiziquvchanlik, faollik» semalari ham mavjudligi nemischa gibril atamada ham o'z ifodasini topayapti.

«Training» leksemasi (manual training, goal-based training va h.) Lernen (learning) leksemasidan farqli o'laroq, kuchaytirilgan mashg'ulot rejimini, intensiv amaliy mashg'ulotlarning muhimligini ta'kidlab, xorijiy tillarni o'rganish jarayoni natijalarni pozitiv dinamikasini ko'rsatish maqsadida doimiy mashq qilishga majbur bo'lgan sportchilar mashg'ulotiga tenglashtiradi.

2. Nemis tili terminologik tarkibini produktiv boyitish usullaridan biri ingliz tilidagi konversivlarni o'zlashtirma so'zlar sifatida qo'llanishidir. Eng ko'p tarqalgan konversiv usul bu - otlardan fe'llar yoki aksincha ,fe'llardan otlar yasalishidir. Masalan:

- to lay out – rejalashtirmoq, qismlarga bo'lmoq, Layout, das (sxema, reja, belgi qo'yib chiqish) – darsliklarda, metodik ishlanmalarda o'quv materialini tizimli joylashtirish;

- to take off- uchmoq, parvoz qilmoq (aviatsiyada) Take off, das — o'quvchilar o'zlashtirish darajasini keskin ko'tarmoq.

Ayrim lug'atlarda bunday ot va fe'llar qayd qilinmaydi. Ularni tarjima qilish uchun ko'pincha kontekstual o'rin almashtiruvchi so'zdan yoki izohli tarjima usulidan foydalanishga to'g'ri keladi:

- chunk – palaxsa, bo'lak (ko'mirning , rudaning) - ta'limning boshlang'ich bosqichida grammatik tahlilsiz yod olinishi va qo'llanilishi lozim bo'lgan so'z birikmasi, gap, jumla. Chunken (to chunk) atamasi esa, mashg'ulot lisoniy materialidan o'kuvchilar o'rganib olishi lozim bo'lgan alohida iboralarni ajratib olishni ifodalaydi. Tabiiyki, bu atamani ham lug'atlardan topa olmaymiz va uni kontekst orqali tushunish mumkin.

3) Nemis tili terminologiyasini boyitishning yana bir usuli ingliz tilidan abbreviaturalarni o'zlashtirishdir. Masalan:

E-Learning, das (auch eLearning, electronic learning, Online-Lernen, Telelemen, Computer Based Training), CAJ - Computer Aided Instruction (computer unterstütztes Informieren), CLL - Community Language Learning.

Ingliz tilidan o'zlashtirilgan aralash variantli qisqartma atamalar ham mavjud: Interlanguage, Pre-closes, Pro-drop-Parameter.

Ingliz tilidagi ayrim atamalarining qisqartma shakllari nemis tilida yangi so'z yasash jarayonida faol ishtirok etadi. Masalan: TKM (Team Kleingruppen-Model), Co-Lernen, Tele-Tutor, E-Coach(ers), E-gestützt, E-Konferenz, TPS-Prinzipien, Web-Verstärkung, Interlanguage theorie, E-Spiel.

Anglitsizmlar asosan matn hajmini qisqartirishga, o'quvchilarni konkret o'quv harakatga rag'batlantirishga xizmat qiladi: TPS (Think-Pair-Share). Ular ko'pincha metodikada «Guruxda muhokama qiling!», «Yangi shakl yasang!», «Axborotni uzating!» qabilidagi xitoblar, ko'rsatmalardan tashkil topadi va keng o'quvchilar auditoriyasini diqqat-e'tiborini jamlashga qaratiladi: (RRR, TTT – takrorlanadigan harf yoki tovushlarni ifodalaydi, Think-Pair-Share –qofiyadosh so'zlarni ifodalaydi).

Terminologik birliklar shaklan sodda, yasama va murakkab so'zlardan (Lead, Setting, Benchmark), so'z birikmalaridan (frozen pair, critical accident, appeal to authority) yoki qisqartmalardan (ATI, BCS, Co-Teaching) tashkil topishi bilan e'tiborni tortadi.

Ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra esa atamalarni ob'ekt nomini ifodalovchi (Overlay, Overhead projektor, Beamer), jarayonni ifodalovchi (Layout; Shaping, Foreshadowing) va belgini ifodalovchi (Pop-up (so'zma-so'z: «ko'zni ola-kula qilib), Black Box, Burnout, Button, Chunks, Deprivation) turlarga, shuningdek protsessuallikni va konnotativlikni ifodalovchi Baby-talk –(konstruksiyanı soddalashtirib gapirish), Blind training (tasmollab mashq qilish), Foreigner talk (Xorijlik kishiga taqlid qilib gapirish) kabi atama turlariga bo'lish mumkin.

Semantik aspektda PLD atamalarni umumlashtiruvchi (kontseptual): Image, Code, Team va differentsiyalashtiruvchi: - Composition, Feature, Narration, Elaboration (insho turlari) atamalarga bo'lish mumkin.

Nemis tilida ko'p miqdorda ingliz tilidan o'zlashtirilgan PLD atamalarining vujudga kelishini pedagog olimlarning ingliz tilining globallashuvi natijasida moda ortidan quvishi emas, tilning genesiologik funksiyasining va olamda yuz berayotgan lisoniy taraqqiyotning ob'ektiv ta'siri deya izohlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan fakt va holatlar nemis tili o'qituvchilariga yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish, jahon xorijiy tillar o'qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish, «o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yangicha usullardan foydalanishni taqozo qiladi. Mashg'ulotlar jarayonida nemischa atamalardan foydalanish o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tushunchalarni nemis tilidagi atamalar orqali to'ldirish imkoniyatini yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Volodina M.N. Kognitivno-informatsionnaya priroda termina (na materiale terminologii sredstv massovoy informatsii). M.: Izd-vo MGU, 2000.- 128 s.
2. Galkina E.H. Terminologiya Yevropeyskogo Soyuzi i problema yego perevoda na ruskiy yazik: Avtoref. dis. M., 1998.
3. Dmitrieva N.S. K voprosu o traditsii i novatorstve v terminologii // Bashk. Gos. Un-t. Ufa, 1991.
4. Lisikova I.V. Inoyazichniy lingvodidakticheskiy termin v svete novix nauchnykh teoriy // Prepodavatel XXI vek. - 2011. - № 4. - S. 301-307 (0,5 pl.).
5. Lisikova I.V. Anglitsizmi v uchebnikax nemetskix avtorov serii „Deutsch als Fremdsprache" II Inostrannie yaziki v shkole. - 2009. - № 8. - S.80-87 (0,5 pl.).
6. Tagayeva S.U. The notion of concept “mother” in proverbs, International Journal on integrated education, Volume 2, Issue V, Oct-Nov 2019, 147-148pp.
7. Mirzaev Ibodulla Kamolovich, Disadvantages of Translation Practice on to the Transmission of Words-Realia, International journal of early childhood special education (INT-JECSE) 4828-4832pp. ISSN:1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
8. Isakova N. Issues of borrowing in the language and its types, International journal of early childhood special education, doi: 10.9756/INTJESCE/Vol 14, Issue 05, 2022